

ZAMONAVIY ERONDA DINIY MAFKURANING SHAKLLANISHI.**Xojimuratova Dilshoda Sunnatullayevna***Tarixi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*e-mail: dilshoda_xojimuratova@tsuos.uz**Ostanaqulova Hulkar Bahrom qizi**1-kurs magistrant, e-mail: Astanaqulovahulkar@gmail.com

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy Eronda diniy mafkuraning shakllanish jarayoni va unga sabab bo'lgan muhim uch omil tahlil qilinadi. Tadqiqotda Eron Islom inqilobidan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan davrda diniy mafkuraning rivojlanish omillari, uning siyosiy va ijtimoiy hayotga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqolada asosiy e'tibor Eronda shialik mafkurasining davlat boshqaruvidagi o'rni, uning siyosiy fraksiyalarga ta'siri va transmilliy geosiyosatdagi mexanizmlariga qaratiladi. Ushbu ish zamonaviy Eron siyosatining mafkuraviy asoslarini tushinishga hissa qo'shib, mintaqaviy siyosiy jrayonlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Diniy mafkura, shialik, viloyate faqih, diniy yetakchilik, fraksiyalar aro kurash, transmilliy ta'sir, mintaqaviy siyosat.

Kirish: Eronda sodir bo'lgan islom inqilobidan so'ng tahlilchilar va ekspertlar Eronda din va siyosatning o'zaro ta'sirini o'rganishga kirishdilar. Ular dinning ommaga ta'siri, huquqshunoslar vasiyligi, va Eron teokratiyasining tarkibiy qismlari va bu holatning siyosatni belgilashga ta'sirini tahlil qildilar. Ushbu maqolada hozirgi Eron shia siyosiy mafkurasining kelib chiqishini tushintirishga qaratilgan. Maqolada g'oyalar, fraksiyaviy manfaatlar va transmilliy kuchlarning zamonaviy Eronda shia siyosiy mafkurasining kuchayishiga ta'siri ko'rsatilgan.

Hukmron ilmiy qarashga ko'ra XVI asr Safaviylar davri Eronda shialikning ilk kelib chiqish davri sifatida qaraladi. Shia islomiyati Eronning ijtimoiy hayotini Safaviylar imperiyasi qulagandan keyin, ya'ni Afshoriylar davridan to Qojarlar davrigacha (1789-1925) boshqarishda davom etdi. XX asr boshida sodir bo'lgan konstitutsiyaviy inqilobda shia ruhoniylari muhim rol o'ynadi. Ular toki Rizo shoh Pahlaviyning modernizatsiya qilish davrigacha boshqaruvda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Rizo Shoh Pahlaviy ularning o'rnini sezilarli cheklab qo'yishga qaramay, uning o'g'li Muhammadrizo ulomalarga yon bosishga majbur bo'lgan. Din ulomalarining o'rni ayniqsa konstitutsiyaviy inqilob davrida keng ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning idorasi Erondagi masjidlar va diniy tashkilotlar orqali ta'sir

doirasini kengaytirib bordi. Ushbu davrda diniy gazeta va jurnallar jadal rivojlandi va islom tarafdorlari o‘z g‘oyalarini keng ommaga e‘lon qilish imkoniyatidan keng foydalandilar. Rizo shoh ularning ahamiyatini sezilarli cheklaganligiga qaramay, ular gazeta va jurnallar orqali g‘oyalarini tarqatishda davom etdilar. Ikkinchi jahon urushi yillarida barcha islom mamlakatlaridagi kabi ular orasida kommunistik g‘oyalar tarqala boshladi. Diniy ulamolarning kommunistik g‘oyalarga faol qarshilik ko‘rsatishlariga qaramay, marksizm diniy guruhlariga ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Xususan, 1953-yilgi davlat to‘ntarishidan so‘ng, ba‘zi diniy idoralar marksizmning ba‘zi unsurlarini o‘zlashtirib, boshqa shia guruhlariga singdira boshladi. Ushbu jarayonlar Eron inqilobiy shia mafkurasini qurishdagi eng muhim epizod bo‘ldi. Bu o‘zgarishlarning asosiy maydonidagi siyosiy timsoli Ali Shariat edi va uning ma‘ruzalari keng Eron yoshlarini jalb etgan. Tarixchilarning fikriga ko‘ra, 1979-yildagi inqilobning asosiy mafkurachisi Ali Shariat deb hisoblanadi. Uning ma‘ruzalari va targ‘botlari konservativ shia fikrlarini inqilobiy mafkuraga aylantirib, inqilobchilarni keng miqiyosda ilhomlantirib turgan. Uning g‘oyalari “ommani hukmron sinfnig buzuvchi siyosiy yangiliklaridan qutqarib, haqiqiy sof islomga chaqirish”dan iborat bo‘lgan. Shuningdek uning asarlarini uchta komponentda jamlash mumkin: birinchi navbatda - islom ruhoniylarini tanqid qilish, ikkinchidan - jamiyat va tarixdagi marksizmning ahamiyati va uchinchi - o‘zlikka qaytish uchun kurash va Eronning o‘ziga xos madaniyatini qaytarish kabilar. Ushbu g‘oyalar inqilobning asosiy mafkurasi bo‘lib xizmat qildi va shia mafkurasi evolutsiyasiga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi.

G‘oyalar bilan bir qatorda, inqilobdan keyingi davrda bu evolutsiyani inqilobiy fraksiyalarning manfaatlari, shuningdek minqataviy va xalqaro muhitlar shakllantirdi. Inqilobchilar va islomchilar o‘rtasidagi to‘qnashuv va raqobat inqilobiy fraksiyalarni shia mafkurasini qayta shakllantirishga va yangi elementlarni qabul qilishga olib keldi. Bundan tashqari, yangi tuzilgan hukumat ichki va tashqi siyosiy hukumatlar bilan aloqa qila olishmasdilar. Ichki ziddiyatlarning hal qilinmaganligi va kuchli boshqaruv apparatining tuzilmaganligi yangi hukumatning Sovet ittifoqi bilan yaqin aloqada bo‘lgan Tudeh partiyasi bilan kelishishga majbur qildi. Tudeh partiyasining targ‘ibotlari anti-Amerikanizmga qaratilgan edi va Eronning bundan keyingi jurnallarida shu targ‘ibotlar ilgari surildi. Ular ommaga “g‘arb kuchlarining mustamlakachilik g‘oyalaridan qochish” shiorlari bilan chiqishlar olib bordi. Shuningdek, ular Amerika bilan har qanday diplomatik munosabat tarafdorlarini qattiq qoraladilar. 1980-yil Eronda inqilobni qoralaganlarni hibsga olish yili bo‘ldi, bu 1981-yil may oyiga qadar davom etdi. 1981-yil 22-may Eron inqilobidan keyingi davrda muhim bosqich bo‘ldi. Islomiy inqilob vakillari siyosiy elita tarkibidagi muxolifat guruhlarini muvaffaqiyatli tozaladi. Ularning dastlabki tarkibi shohni ag‘darishda yordam bergan so‘lchilar va millatchi guruhlar koalitsiyasidan iborat bo‘lgan.

Shia mafkurasi evolutsiyasining harakatlantiruvchi kuchi faqat fraksiya manfaatlar bilan chegaralanib qolmadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Tudeh tashkiloti inqilobdan keyingi davrda kun tartibini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan. 1981-yil Erondagi kichik fuqarolar urushi siyosiy maydonda cheklovlar o’rnatdi. Hatto “Ozodlik harakati²” kabi jangari bo’lmagan guruhlar ham jiddiy cheklovlarga duch keldi. Xavfsizlik apparati ularning rahbarini zindonband qilishga majbur bo’ldi. Eronda muxolif kuchlar yo’q qilinganligiga qaramay, siyosiy raqabot pasaymadi. Hukmron elitaning xilma-xil fraksiyalardan tashkil topganligi ichki kurashlar avj olishiga olib keldi. 1980-yillarda fraksiya yangi islom davlatining maqsadi va siyosatini ishlab chiqishi kerak edi. Ushbu fraksiya tarkibidagi asosiy raqobatdosh guruhlardan biri Oyatulloh Humayniy va uning idorasi tomonidan qo’llab-quvvatlangan, universitetda tahsil oluvchi yoshlar bo’lib, ular inqilobda aytilganidek farovon davlat qurish to’g’risidagi va’dalarini amalga oshirishni rejalashtirdilar. Farvonlik siyosatini amalga oshirishning asosiy mexanizmi davlat nazorati va salohiyatini mustahkamlash edi. Shuningdek, ular shahar kambag’allari uchun oziq-ovqat, issiqlik energiyasidan foydalanish, sog’likni saqlash va ijtimoiy xavfsizlik tarmog’ini joriy etishga harakat qildi. Boshqa tomondan, bir guruh ruhoniylar, an’anaviy tijorat va xususiy sektor egalari ijtimoiy davlat platformasiga qarshi chiqdilar. Keyinchalik o’nglar (an’anaviy konservatorlar) ilsomchi so’llarning siyosiy platformasini kommunizmdan ilhomlangan va islom an’analariga zid deb topib, ularga qarchi chiqdilar. Ushbu fraksiyalar ichidagi kurashlar bir qarashdan zamonaviy boshqaruv ichida tez-tez sodir bo’lib turadigan o’ngchilar va so’lchilar munozarasi bo’lib ko’rinishi mumkin, ammo ularning munozaralari shia huquqshunosligi bo’yicha siyosiy boshqaruvni ishlab chiqishda mafkuralar urushi edi. O’ngchilar shakllangan islomiy so’llarning sotsialistik qarashlari o’rniga mamlakatni shia amaliy risolasi yoki katexizm³ (forscha Ressale Tozihol Masael)ga binosan boshqarishni tashkil etish kerakligini ta’kidladilar. Inqilobchilar allaqachon sud tizimidagi dunyoviy qonunlarni diniy qonunlarga almashtirishgandi. Shunga qaramay, o’ngchilar so’lchilarga qarshi turishda davom etdilar va ko’proq huquqlarga ega bo’lishni talab qildilar. Bunday mafkuraviy kurash birinchi navbatda mamlakat iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishda namoyon bo’ldi. Ular hukumat aralashuvini tanqid qiluvchi hamda shaxslarning mulk huquqlarini himoya qilish uchun ishlab chiqilgan tamoyillarni qayta ko’rib chiqishni talab qildi, shuningdek ular ijtimoiy siyosatda ishchi va ish beruvchi mansabdorlarning yollanma mehnat to’g’risidagi zamonaviy mehnat qonunchiligini joriy etishni rad etishdi. Raisi

² Islom inqilobi paytida tuzilgan guruh bo’lib, tarkibini ziyolilar, diniy rahbarlar va boshqa turli ijtimoiy tabaqalar tashkil qilgan. Ularning asosiy maqsadi demokratik islohotlar, inson huquqlari va siyosiy erkinlikni chaqirishdan iborat edi.

³ Diniy ta’lim berishning tizimli shakli, ya’ni savol-javob uslubidagi o’quv metodi. Uslub orqali diniy asoslar, e’tiqodlar va amaliy hayot qoidalari tizimli tushintiriladi.

ta’kidlaganidek (2020), Eronning parlament siyosatiga fraksiyalararo kurash va milliy siyosiy bahslar ta’sir ko’rsatadi. Inqilobdan keyingi davrda bosh vazir Musaviy va uning ma’muriyati so‘lchilarning kun tartibini qo‘llab-quvvatladi. Uning bu harakatlariga javoban o‘ngchilar tomonidan Musaviy hukumatiga tazyiqlar o‘tkazilib, “sotsialistik kun tartibi”ni olib tashlashga targ‘ib qildi. 1985-yil Oyatullo Humayniyning so‘lchilarga yon bosishi tufayli fraksiyalar ichidagi kurashlar to‘xtab qoldi. Humayniy bunday qarorga kelganligini ochiqalmasa ham, u yangi sof islom mafkurasini shakllantirishga harakat qildi. Ushbu jarayonlar yangi tashkil etilgan Islom Respublikasining siyosiy boshqaruvini ishlab chiqishda ikki muhim oqibatlariga olib keldi. Tashqi siyosatda “Islom himoyachilari” AQSH bilan yaqinlashishni qoraladi va ichki siyosatda yuqori va quyi tabaqalar o‘rtasidagi sinfiy ziddiyatni tanqid qildi. Humayniy davridan keyin Erondagi siyosiy vaziyat so‘lchilarning yo‘q bo‘lib ketishiga turtki bo‘ldi. Eron hukumatining yangi oliy rahbari prezident Hoshimi Rafsanjoniy boshchiligidagi hukumat konservatorlar va texnokratlar guruhi ittifoqini tuzdi. Hoshimi Rafsanjoniy ma’muriyatida muhim lavozimlarga ma’sul bo‘lgan texnokratlar guruhi neoliberal siyosat platformasini tuzdi. Ammo Eron va Iroq o‘rtasidagi sakkiz yillik urush natijasida sodir bo‘lgan iqtisodiy turg‘unlik keyingi ma’muriyatni kvazi-neoliberal⁴ siyosat platformasini tuzishga majbur qildi. Texnokratlar guruhi esa siyosiy o‘zgarishlarning agenti bo‘lgan pragmatik fraksiya “Kargozaran-e Sazandegi”ga aylandi. Rafsanjoniy ma’muriyatidagi bu texnokratlar guruhi ikkinchi besh yillik rivojlanish rejasi (1989-1994) bilan bozorni isloh qilish siyosatini boshladi. Ammo ularning bozor islohotlari kambag‘allar hayotini og‘irlashtirib bordi. Texnokratlar dastlab an’anaviy konservatorlar bilan ittifoq tuzgandi va 1992-yilgi parlament saylovlarida konservatorlar Rafsanjoniy boshqaruvini qo‘llab-quvvatlash va’dasi bilan g‘alaba qozondi. Biroq bu ittifoq uzoqqa cho‘zilmadi. Konservatorlar keyingi saylovlarda texnokratlarni qo‘llab-quvvatlamay qo‘ydi va “Kargozaran Sazandegi” nomi ostida yangi siyosiy koalitsiya tuzdilar. Ushbu yangi guruh Eron-Iroq urushidan keyingi mamlakatni qayta qurish jarayonini tezlashtirish uchun xalqaro hamkorlik va bozor islohotlarini taklif qildi. Shunga qaramay, Rafsanjoniy o‘z prezidentlik muddatini iqtisodiy inqiroz bilan yakunladi. Bu esa bozor iqtisodiyotiga asoslagan islohotlarni amalga oshirish qiyin kechganini hamda, Eron siyosiy sahnasida mafkuraviy ziddiyatlarning davom etganini ko‘rsatadi.

1997-yil hukumatga prezident etib Muhammad Hotamiy keldi. U ilgari madaniyat vaziri bo‘lib ishlagan, liberallashtirishga moyil siyosatchi edi. U saylovda 80 foizlik ovoz bilan g‘alaba qozongandi. Hotamiy o‘z islohot dasturini islomiy so‘l qanotchilarni qo‘llab-quvvatlash va pragmatiklarning iqtisodiy rivojlanish haqidagi qarashlari asosida

⁴ Neoliberal g‘oyalarni qisman qabul qilgan, lekin to‘liq neoliberal prinsiplarni amalga oshirmaydigan yondashuv.

shakllantirdi. 1997-yilgi saylovlarda aynan islomiy so‘l qanotchilar koalitsiyasi g‘olib bo‘lgandi. Ammo keyinchalik ular o‘zlarini islohotchilar deb atab, o‘zlarining dastlabki ijtimoiy himoya siyosatidan voz kechib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan yondashuvni qabul qildi. Islohotchilar ketma-ket uchta saylovda (parlament, shahar kengashi va Hotamiy prezidentligining ikkinchi muddati) katta g‘alabaga erishdilar. Ular bu muvaffaqiyatdan foydalanib, ichki siyosatni liberallashtirishga harakat qilishdi va parlament orqali bir qancha islohot qonunlarini qabul qilishdi. Biroq ushbu qonunlarning aksariyati Shahro gardon kengashi⁵ tomonidan shariat va konstitutsiyaga zid deb topilib, rad etildi. Chunki, ularning islohotlarga asoslangan siyosati o‘sha davrda ommalashgan liberal tamoyillarga asoslangan bo‘lsa ham, bu qarashlar amalda sust va beqaror edi.

Islohotchilar 1970-yillardagi inqilobiy mafkurani yarim liberal mafkuraga aylantirdilar, keyinchalik bu postislomizm rivojiga katta hissa qo‘shgan. Bozor islohotlariga yo‘naltirilgan siyosat fraksiyalar manfaatlariga xizmat qilishlari bilan birgalikda, teologik o‘zgarishlarning asosi edi. Xususan, Abdulkarim Soroush ushbu islohotlar loyihasining asosiy ishlab chiquvchisi edi. U Eron madaniy inqilobi bo‘yicha oliy kengashning sobiq a‘zosi bo‘lib, post-islomchilik rivojiga hissa qo‘shgan. Soroushning islohotchilik loyihasi ikkita asosiy jihatdan iborat edi: Diniy tushunchaning epistemologik tahlili – U dinning o‘zi va odamlarning islomni tushinishi o‘rtasidagi farq borligini ilgari surdi. Bu nazariy yondashuv islomning mafkuraviy talqiniga qarshi yo‘naltirilgan edi. Keyingisi fuqarolik tushunchasining qayta talqin qilinishi, ya‘ni Soroush fuqarolarni majburiyatli emas, balki huquqli shaxslar sifatida ko‘rish kerakligini ta‘kidladi. Bu yondashuv an‘anaviy islom huquqshunosligi (fiqh) va inson tabiatiga oid qarashlarga bevosita qarshi edi. Soroushning bu qarashlari Eron Islom Respublikasining mafkuraviy asoslari, xususan, Veloyati Faqih (Faqih hukmronligi) doktrinasiga tahdid sifatida qabul qilindi. Natijada, konservativ kuchlar unga qarshi chiqdi va uning universitetlardagi ommaviy ma‘ruzalarini to‘xtatish uchun vigilante⁶ guruhlarini safarbar qildi. Garchi u keyinchalik neoliberalizmni tanqid qilgan bo‘lsa ham, uning g‘oyalari Erondagi intellektual va siyosiy muhitga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, konservativ kuchlar islohotchilikni Eronni liberal tuzumga o‘tkazish uchun reja sifatida ko‘rdilar. Bu tahdidni anglash shia mafkurasining rivojlanishiga muhim ta‘sir ko‘rsatdi. Shu sababli, Eronning konservativ siyosatchilari yangi inqilobiy mafkurani ishlab chiqib, uni rejimning o‘zgarmas tarkibiy qismi sifatida ilgari surdilar, Bundan tashqari, ular bu mafkuraviy asosni mustahkamlash uchun islomiy ijtimoiy fanlarga bo‘lgan ehtiyojni qayta tiriltirdilar. Islohotchilar va konservatorlar o‘rtasidagi bu

⁵ Eron Xavfsizlik boshqarmasi.

⁶ Eronda mavjud bo‘lgan, rasmiy huquqiy tizim doirasidan tashqari, lekin davlat tomonidan yoki konservativ siyosiy kuchlar tomonidan yollanadigan guruhlar.

mafkuraviy qarama-qarshilik Eronning ichki va tashqi siyosatidagi fraksion muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, konservatorlar islohotchilarning liberal yo'nalishini ommani safarbar qilishga muqobil yo'l sifatida ko'rmadilar. Ular islohotchilarni Eron siyosiy fraksiyalaridan butunlay yo'q qilish kampaniyasini boshladilar. Konservatorlar 2003-yilgi nisbatan erkin va adolatli bo'lgan saylovlarda g'alaba qozonishdi. 2004-yilgi parlament saylovlari oldidan, Konstitutsiyani himoya qilish kengashi 2000 dan ortiq nomzodni, asosan islohotchilarni saylovda qatnashishdan mahrum qilgan. Bu konservatorlarning g'alabasiga yo'l ochgan. 2005-yilgi prezidentlik saylovlarida raqobat kuchli bo'lib, unda saylovchilarning 62 foizidan ko'prog'i ishtirok etgan. Bu saylovda konservativ siyosatchi Mahmud Ahmadinajod korrupsiyaga qarshi kurashish va neft daromadlarini oddiy xalqqa yetkazib berish va'dasi bilan g'alaba qozongan. Shuningdek, uning mafkuraviy pozitsiyasi ham birinchi turdayoq g'alaba qozonishga yordam bergan. Bu davr Eron siyosatida konservatorlarning kuchayishi va islohotchilarning ta'siri pasayishi bilan ajralib turadi. 2009-yilgi prezidentlik saylovlari konservatorlar va islohotchilar o'rtasidagi keskin kurashning eng yaqqol namunasidir. Saylov natijalari bahsli bo'lib, islohotchilarning yetakchilari hibsga olindi va davlat xavfsizligiga tahdid va rejim o'zgartirish rejalari uchun ommaviy sud jarayonida ayblangan. Reformistlarning rahbari uy qamog'iga tashlangan. 2013-yilgi prezidentlik saylovlarida islohotchilarning qo'llab-quvvatlovi bilan Hassan Ruhoniy g'alaba qozondi. Uning asosiy yutug'i xalqaro hamjamiyat bilan murosaga kelish va hamkorlik qilish bo'ldi. Bunga 2015-yilda Eron yadro bitimi (JCPOA) misol bo'la oladi. Ammo konservatorlar bu siyosatni Eronning inqilobiy mafkurasiga zid deb baholab, Ruhoniy va tashqi ishlar Vaziri Javad Zarifga qarshi kurashni davom ettirdilar.

Shia ideologiyasining rivojlanishida yana bir muhim jihatlardan biri transmilliy kuchlar va geosiyosat ta'siri edi. 2003-yil AQSH ning Iroqqa bostirib kirishi bilan Eron rejimi uchun jiddiy xavf tug'dirdi. Ichki siyosatda Eronda siyosiy islohotlarga bo'lgan talab ortib borayotgandi hukmron elita mafkurasini qayta shakllantirishga majbur qildi. Shu tariqa, Eron rejimi yangi mafkuraviy yo'nalishni shakllantirdi. Konservativ elitalarga yaqin media tahlillari shuni ko'rsatadiki, mafkuraviy diskurs islohotchilarga nisbatan qarshilik sifatida namoyon bo'ldi. Bu qarshilik mafkurasi islohotchilar ilgari surayotgan liberal yondashuvni islomiy tuzum uchun tahdid sifatida baholaydi va islomning ichki hamda tashqi siyosatidagi rolga ularning yondashuvini rad etadi. Chunki bu paytda islohotchilar g'arb davlatlari bilan muzokaralar olib borishni tanlagan va konservatorlar esa AQSH siyosatini Eron uchun tahdid sifatida baholadilar. Prezident Jorj Bushning Eronni "Yovuzlik o'qi" deya e'tirof etishi islohotchilar mavqeini zaiflashtirdi. Shuningdek, boshqa arab mamlakatlari jumladan Saudiya Arabistoni va Isroil bilan sovuq munosabatlar va arab

bahori voqealari Eron hukumati uchun qattiq izolyatsiya siyosatini yuritishga majbur qildi. 2018-yil AQSH ning yadro dasturidan chiqib ketishi Eron hukumatini yanada sergak tortishga undadi. Shunday qilib XX asr boshida, AQSH ning Eronga munosabati va mintaqadagi geosiyosiy voqealar ichki fraksiyalar o‘rtasidagi kuchlar muvozanatini konservatorlar foydasiga hal qildi. Natijada, Eron o‘zining xavfsizligini ta‘minlash uchun strategik yolg‘izlik va o‘z-o‘zini ta‘minlash konsepsiyasini ishlab chiqishga majbur bo‘ldi.

Xulosa: Yuqorida takidlashlardan kelib chiqib, Eronning hozirgi diniy mafkurasini quyidagi omillarning o‘zaro ta‘siri natijasida shakllangan deb xulosa qilish mumkin: G‘oyalar evolyutsiyasi, ichki siyosiy manfaatlarga asoslangan ratsional hisob-kitoblar fraksiyalar ichra kurash, transmilliy kuchlarning ta‘siri. Shuningdek, Eron shia mafkurasi evolyutsiyasi quyidagicha oqibatlar bilan yakunlandi: Ichki siyosatda konservatorlar hukmronligining mustahkamlanishi va islohotchilarning chetlashtirilishi, mintaqada “Qarshilik o‘qi” strategiyasining kuchayishi va sunniy davlatlar bilan qarama-qarshilikning keskinlashishi va xalqaro maydonda g‘arb bilan ziddiyatlar ortib, Xitoy va Rossiya bilan hamkorlik chuqurlashuvi kabilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirsepassi, A. (2017). *Transnationalism in Iranian Political Thought: The Life and Times of Ahmad Fardid*, Cambridge University Press.
2. Salehi-Isfahani, D. (2009). "Poverty, inequality, and populist politics in Iran." *The Journal of Economic Inequality* p- 5-28.
3. Soroush, A. (2002). *Reason, freedom, and democracy in Islam: Essential writings of Abdolkarim Soroush*, Oxford University Press.
4. Rahnam's biography of Shariati states that some of Shariati's friends helped Shariati in translation of the book.
Ali Rahnema, *An Islamic Utopian: A Political Biography of Ali Shari'ati* (London: I.B. Tauris, 1998), 127
5. Njdeh Asisian, *Shia Iran and Effects of Globalization on State and Religion: The Beginning of Post-Islamizm Era*. Small Wars Journal 2016.
6. Alireza Raisi, *Iran: Construction of s Shia Political Ideology in the Modern Age*. Chapter 22.